



A comparative study of address forms expressed through kinship terms (based on Uzbek and English language materials)

Dilafruz SULAYMONOVA¹

Uzbekistan State World Languages University

ARTICLE INFO

Article history:

Received November 2024

Received in revised form

10 December 2024

Accepted 25 December 2024

Available online

25 January 2025

Keywords:

forms of address,
kinship terms,
family relations,
couple relations,
nuclear family.

ABSTRACT

This article analyzes the forms of address expressed through kinship terms. In the culture of the Uzbek and British peoples, the terms of kinship mean not only biological relations, but also social relations and expressions of respect. The article examines the forms of address that are often encountered in family discourse, mainly in marital relations, their place in communication, their semantic features, and their historical forms. Also, kinship in English is compared with forms of address, their cultural and linguistic aspects are considered and interpreted with examples from works of art. The results of the article show that kinship terms are important in oral speech as a means of expressing respect, closeness and social status.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol3-iss1/S-pp283-287>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Qarindoshlik terminlari bilan ifodalanuvchi murojaat shakllarining qiyosiy tadqiqi (o'zbek va ingliz tili materiallari asosida)

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

murojaat shakllari,
qarindoshlik terminlari,
oilaviy munosabatlar,
juftliklar munosabati,
nuclear oila.

Ushbu maqolada qarindoshlik terminlari orqali ifodalanuvchi murojaat shakllari tahlil qilinadi. O'zbek va ingliz xalqlari madaniyatida qarindoshlik terminlari nafaqat biologik aloqalarni, balki ijtimoiy munosabatlar va hurmat ifodasini ham bildiradi. Maqolada oila diskursida asosan er-xotin munosabatalrida tez-tez uchrab turadigan murojaat shakllari, ularning muloqotdagi o'rni va semantik xususiyatlari hamda tarixiy shakllari ham o'rganiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi

¹ Uzbekistan State World Languages University. Tashkent, Uzbekistan. E-mail: da.sulaymonova@uzswlu.uz

qarindoshlik murojaat shakllari bilan qiyosiy tahlil qilinib, ularning madaniy va lingvistik jihatlarini ko'rib chiqiladi va badiiy asarlardan keltirilgan misollar bilan sharhlab o'tiladi. Maqola natijalari shuni ko'rsatadiki, qarindoshlik terminlari og'zaki nutqda hurmat, yaqinlik va ijtimoiy maqomni ifodalash vositasi sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Сравнительное исследование форм обращения, выраженных терминами родства (на основе материалов узбекского и английского языков)

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:
формы обращения,
термины родства,
семейные отношения,
парные отношения,
нуклеарная семья.

В данной статье анализируются формы обращения, выраженные через термины родства. В культуре узбекского и британского народов термины родства означают не только биологические отношения, но и социальные отношения и проявления уважения. В статье рассматриваются формы обращения, часто встречающиеся в семейном дискурсе, преимущественно в супружеских отношениях, их место в общении, смысловые особенности, исторические формы. Также родство в английском языке сопоставляется с формами обращения, рассматриваются и интерпретируются их культурно-языковые аспекты на примерах из произведений искусства. Результаты статьи показывают, что термины родства играют важную роль в устной речи как средство выражения уважения, близости и социального статуса.

Qarindoshlik terminlari tasnifi o'z-o'zidan aniqki, ular oilaviy muloqotlardagi murojaatlar orqali yuzaga kelgan. Ma'lum bir oiladagi shaxslar, aniqrog'i, qarindoshlarni chaqirishda, ularga yuzlanib, suhbatni boshlashda kundalik nutqiy faoliyatimizda tez-tez uchrab turadigan murojaat terminlaridir. Ba'zi joylarda "qarindoshlik" so'zi yaqin oilaviy munosabatlarni anglatadi. Bu esa biologik qarindoshlarni (ota, ona, akalar, ukalar) yoki turli oilaviy uzviyliklarni ifodalaydi. Oila tushunchasining o'zi bir necha asrlik tarixiy bosqichlarni bosib, jamiyatdagi turli o'zgarishlarga yuz tutib kelayotganidek, undagi murojaat ifodalari ham o'ziga xos zamon va makonda, jamiyatdagi yangilanishlar ta'sirida yoki o'z shaklini yo'qotib, yoki yangi holatda mazmun doirasini kengaytirmoqda. Har qaysi madaniyat vakillari muloqotini izchillik bilan kuzatar ekanmiz, ular o'zida bir necha asrlik nutq odobi me'yorlari, shuningdek, milliy-madaniy an'analarini aks ettirishiga guvoh bo'lamiz. Rus olimasi V.G. Dikova o'z tadqiqot ishida qarindoshlik atamalarini ikki ya'ni nisbiy (adresant muayyan shaxslarning qarindoshi ekanligi) va mutlaq (keksa ayolga nisbatan "ona" murojaati qo'llanilishi) ma'no kasb etishini ko'rsatib beradi. Demak, qarindoshlik atamaları orqali ifodalanuvchi murojaat shakllarini biz faqatgina ma'lum bir qondoshlik munosabatiga ega oila vakillari nutqida uchratamiz, degan qat'iy fikrni ilgari sura olmas ekanmiz.

Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari ustida ish olib borgan olim I. Ismoilov tilshunoslik nuqtai nazaridan bu kabi atamalarni ikki yo'l bilan tadqiq qilish taklifini ilgari suradi: 1) terminlar va nomlarning kelib chiqishi va taraqqiyoti; 2) terminlar va nomlarning hozirgi ahvoli, ko'rinishi, leksik, grammatik xususiyatlari va ularning ma'no doiralari nuqtai nazaridan. Shuningdek, tadqiqotchi hozirgi kundagi qarindoshlik terminlarining kelib chiqishi va ma'nosiga ko'ra uch guruhga ajratadi:

- 1) Qon-qarindoshlik terminlari-ota, amma;
- 2) Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlari: ovsin, quda;
- 3) Yaqinlik nomlari: tutingan onam.

Ushbu tadqiqotda esa biz qarindoshlik terminlari yordamida ifodalanuvchi murojaat shakllarini ishlatilish doirasi va mazmuniga ko'ra uch guruhga bo'lib o'rganishni ma'qul topdik:

1. Kichik (nuklear) oilalarga xos qarindoshlik terminlari;
2. Katta oilalarga xos qarindoshlik terminlari;
3. Situativ (vaziyatli) qarindoshlik terminlari.

Nuklear oilalarga xos qarindoshlik terminlari guruhida odatda farzand sonidan qat'i nazar ota-ona va farzandlardan iborat oila guruhi nazarda tutiladi. O'z navbatida ushbu guruh ham uch turdagi munosabatlar kombinatsiyasini tashkil qiladi:



1-Shakl. Nuklear oilalarga xos munosabatlar kombinatsiyasi

Bu guruhdagi qarindoshlik terminlari har ikki madaniyat vakillari nutqida keng tarqalgan. Ma'lumki, har bir millat, hattoki undagi har bir oila muloqotida ham o'ziga xos ichki oilaviy me'yorlar mavjud bo'ladi. O'zbek oilaviy murojaatlari talqinida ko'radigan bo'lsak, er-xotin munosabatlarida turmush o'rtog'ining ismi orqali murojaat qilish (ayniqsa, ayolining eriga yuzlangan murojaati) o'zbek xalqi mentalitetida noodatiy holatdir. An'anaga ko'ra, bu kabi murojaatlarda turmush o'rtog'i ismi oldiga "aka" so'zi qo'shiladi:

– *Yuring, yuring, A'zamjon aka. Uyimiz bu yoqda.* (Ufq. S. Ahmad. 487 b.)

Biroq, bu kabi murojaatlar ham to'laqonli urfga kirgan, deya olmaymiz. Oilada ilk farzand dunyoga kelishi bilan esa bu murojaat aksar hollarda "dadasini", "onasi" kabi so'zlar bilan almashiniladi:

– *Bolamga qattiq gapirmang. U nimani biladi, yosh bola-ku. Esi kirib qolar, dadasi.*

– *Yog' solib patir yop, onasi! Hammasi risoladagidek bo'lsin!* (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi 170 b.)

O'z navbatida bu kabi oila a'zolarining bir-biriga murojaat qilish uslubi turli hududiy shevalarda o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lishi yoki ularga mintaqaviy urf-odatlar va oilaviy an'analar ham ta'sir qilishi mumkin. Jumladan, Toshkent shevasida "adasi", "oyisi", Farg'ona vodiysi aholisining asosan og'zaki nutqida "onasi", "ayasi", "dadasi", "otasi" ko'rinishida, Surxondaryo vohasida esa "momosi", "bovasi", "enasi" kabi er-xotin munosabatlaridagi murojaat shakllari tez-tez so'zlashuvda va badiiy adabiyotlarda uchrab turadi:

– *Xo'sh, endi nima qilamiz, momosi?...*

– *Bilmasam, bovasi, men bilmasam...* (Tog'ay Murod. Oydinda yurgan odamlar. 20 b.)

Mazkur murojaat shakllariga qo'shimcha (-jon) yoki ma'no kuchayturuvchi so'z (jon) qo'shilishi muloqot oqimining mohiyatan o'zgarishiga ya'ni nutqqa kinoya, istehzo, noziklik, yumshatish, yupatish, maqtov kabi lisoniy ifodalarning kiritilishi bilan sharhlanadi:

– *Sabr qiling, dadajonisi! Hozir pishadi, biram shirin go'ja qaynatib qo'ydimki, og'zingizda erib ketadi.* (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. 166 b.)

– *Shattaydi, dadasi, qozir sigirni yetaklab chorboqqa kirib ketgandir. Tag'in urib-netib o'tirmang, jon dadasi.* (S. Ahmad. Ufq. 95-b.)

Badiiy asarlarda murojaat shakllari tahlilini ko'rib chiqish natijasida hattoki bir necha yillar befarzand yashayotgan oilalar nutqida ham "onasi", "dadasi" singari chaqiriqlar odatiy holga aylanganiga guvoh bo'lish mumkin va o'z o'rnida bu albatta yana bir bora yuqorida qayd etilgan asosan turkiy xalqlar uchun tabudek ko'ringan murojaatlarga yuzlanmaslik holatini keltirib chiqaradi.

Bu o'rinda shuni ham aytib o'tish kerakki, yuqorida ta'kidlanganidek, farzandlar tug'ilishi er-xotinlar nomlanishiga ta'sir qilganidek, oilada nabiralar paydo bo'lishi ham hattoki murojaatlarga o'z ta'sirini ko'rsatmay qolmaydi, yoki aksar hollarda o'zbek oilalarida faol qo'llanib kelinayotgan "onasi", "dadasi" murojaat shakllari yosh o'tib borgani sayin "bobosi", "buvisi" kabi birliklar bilan tabiiy almashish imkonini beradi:

– *Bobojonisi, anavi... tabibning o'gli bor-ku, hah oti nimaydi-ya? Ochilboy!*

– *Onasi bechora deng, eshigimizning turmini buzyapti.* (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. 136 b.)

Juftliklar suhbatida chog'ida o'zaro ularning bir-biriga jinsi orqali murojaati ham nutqimizda uchrab turadi. Bu kabi murojaat terminlari asosan kontekst mazmuniga bog'liq holda nutqiy badiiy bo'yoqdorlik hissini oshirishga xizmat qiladi:

– *Keyin aytib beraman, xotin. Gap ko'p. Zo'r ishlar bo'ladiganga o'xshaydi. Boray-chi, otaning o'zlari aytib qolarlar. O'z og'zilaridan eshitay.*

– *Bir so'zligingizni qo'ying, er; o'zi aslzoda, loaqal bir og'iz o'g'lingizga aytib o'tishka va'da bering-chi, – dedi.* (A. Qodiriy. O'tkan kunlar. 71b.)

Bundan tashqari, o'zbek yozuvchisi Sh. Xolmirzaevning "Ozodlik" hikoyasida berilgan quyidagi jumlar o'zbek madaniyatining ham serqirra, yuksak va uzoq tarixiy milliy qadriyatlariga egaligini ochib beradi:

– *Sen chiyl to'qishni bilasan-a? Ey, kampir, kaklikka qara. Ko'zini yumibgina qopti. Ana, ochdi ... He, Qalamqosh ... Shuyam tush ko'rsa kerak-a?*

Yuqoridagi asardan olingan parchani Sh.Doniyorova o'z monografiyasida shunday sharhlaydi: "hikoyada Mansur o'z xotiniga "kampir" deya murojaat etmoqda. «Kampir» so'zi bu o'rinda uning qariligini bildirish uchun xizmat qilgan emas, albatta. Turli joylarda erkaklar o'z xotinlariga nisbatan turlicha nom bilan murojaat etadilar. Ba'zilar to'g'ridan-to'g'ri xotinning ismini aytib, ba'zilar biror farzandining nomi bilan, boshqalar esa" ey", "xotin", "xonim", "onasi" kabi so'zlar bilan murojaat etishadi. Mansurning o'z xotiniga "kampir" deb murojaat etishida ham mahalliy sharoit tasviriga oid belgilar mavjuddir".

– *Hamma ko'tarmasayam siz borsiz-ku, chol! Menga joningiz kuymasinda, o'zingizga qarang. Belingizga ham shamol tegmasin!* (O'tkir Hoshimov. Ikki eshik orasi. 171 b.)

Tadqiq etilayotgan noqardosh til vakillari oilaviy munosabatlari bizning mentalitetimizga bir oz noxosligini hisobga olganda, murojaat shakllari tahlilida ham tafovutli jihatlar uchrab turishi tabiiydir. Juftliklar tomonidan bir-biriga qaratilgan chaqiriqlar ingliz madaniyatida asosan nikoh tushunchasi bilan bog'liq bo'ladi. Turmush qurishdan oldin inglizlar rafiqasini "sherik" ya'ni "partner" deb chaqirishni, rasmiy nikohdan keyingina "ayolim", "xotinim" singari murojaat birliklari qo'llashni afzal ko'radilar. Erkaklar tomonidan ayoliga nisbatan eng ko'p qo'llanilib kelinayotgan "my wife", "the wife", "her indoors", "the missus", "the management", "the boss", "my lady" so'z va so'z birikmalari rasmiy va norasmiy muloqot jarayonida iste'mol doirasida ekanligi qayd etilgan:

– *"Ah, wife," said the man, "why should we be King? I do not want to be King."* (Virginia Woolf, To the lighthouse. 35 p.)

Oila diskursida er-xotin munosabatlarida murojaatning mehr-muhabbatni ifodalashga xizmat qiluvchi so'z va iboralar turkumiga kiruvchi shakllari ayniqsa, yosh oilalar suhbatlari chog'ida ko'p kuzatiladigan hodisadir.

Ajablanarlisi shundaki, ingliz nutqida uchraydigan birgina "darling" so'zining Glazgo universiteti tadqiqotlaridan kelib chiqqan holda 130 ga yaqin sinonimi mavjudligi borasida fikr yuritiladi. Demak, hattoki murojaat chog'ida bo'lsa-da, inson tili barcha his-tuyg'ularni yetkazish qudratiga ega. Ayniqsa, muloqot mehr-muhabbatga borib taqalganda, juftliklarning o'zaro bir-biriga ifoda etishni istagan murojaati serqamrov:

Ro'ymol tugish bilan mashg'ul latif qo'llarni chet qo'l kelib siqdi:

– *Jonim!* (A. Qodiriy. O'tkan kunlar.32 b.)

– *My angel, my own, my beautiful darling, I shall hold you in my arms forever.* (Tess of the D'Urbervilles by Thomas Hardy)

Ko'rinib turibdiki, har bir tilda ham suhbatdoshiga murojaat yo'llashning o'ziga xos leksik-semantik usullari mavjud bo'lib, ular mazkur tilda so'zlashuvchi insonlarning millati, dini, irqi, kelib chiqish etnogenezi doirasida yoki bir-biriga o'xshash bo'ladi, yoki bir-birining butunlay aksini ifodalaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Doniyorova Sh. Ijodkor va uslub. T., "Turon zamin ziyo", 2014, 51-bet.
2. Дыкова, ВТ. Сопоставительное исследование английских и русских апеллятивов и их переводческих корреляций [Текст]: дис. ... канд. филол.наук / В.Г. Дыкова. – М., 2003. – 151 с.
3. Ismoilov I.A. Turkiy tillarda qavm-qarindoshlik terminlari (uzbeq, uig'ur, qozoq, qirg'iz, qoraqalpoq, turqman tillari materiallari asosida). T.: Fan, 1966.-156 s. S. 10-11.
4. Xolmirzaev Sh. Ozodlik. Hikoya. Vatan. 1994, 8 – 16-betlar.